

**ATTRIBUTIVE ADJECTIVE IN ARABIC: ANALYSIS OF STRUCTURAL AND SEMANTIC FEATURES****Nargiza I. Mustafoyeva***Higher School of Arab Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*nargiza.mustafayeva@my.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Adjective, determiner, subjunctive connection, speech style.**Abstract:** In this article, the issue of the singular adjective that forms the subordinating conjunction in Arabic and its function, the connection with the noun, and their manifestation in the manner of speaking is discussed.**Received:** 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26**ARAB TILIDA ATTRIBUTIV SIFAT: STRUKTURAVIY VA SEMANTIK XUSUSIYATLAR TAHLILI****Nargiza I. Mustafoyeva***Stajor-o 'qituvchi**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*nargiza.mustafayeva@my.com*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** Sifat, aniqlovchi, tobe bog'lanish, so'zlashuv uslubi.**Annatsiya:** Ushbu maqolada arab tilida tobe bog'lanishni hosil qiluvchi birlik sifat va uning vazifasi, ot bilan bog'lanishi hamda ularning so'zlashuv uslubida voqelanishi masalasi yoritiladi.**АТРИБУТИВНОЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНОЕ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ: АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ И СЕМАНТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ****Наргиза И. Мустафоева***Стажер-преподаватель**Высшая школа арабистики**Ташкентский государственный университет востоковедения*nargiza.mustafayeva@my.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Прилагательное, определитель, подчинительный союз, разговорная речь.

Аннотация: В данной статье рассматривается прилагательное в единственном числе, образующее подчинительный союз в арабском языке, его функция, связь с существительным и их употребление в разговорной речи.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, arab tili grammatik qurilish jihatdan bir muncha murakkablikka ega. U o'ziga xos murakkab qoida va uslublarni o'z ichiga oladi. Arab tili boshqa tillardan o'ziga xos ifoda uslubiga boyligi bilan ajralib turadi ya'ni so'zamol til hisoblanadi. Uning grammatikasi tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Grammatik xususiyatlarning o'ziga xos tomonlaridan biri bu so'zlarning o'zaro to'rt holatga ko'ra moslashuvi hisoblanadi. **التوابع** so'zi **تابع** (ergashmoq izidan bormoq) fe'lidani olingan bo'lib ergashuvchilar degan ma'noni anglatadi, Ular o'zi ergashib kelayotgan so'zga moslashganligi uchun ham shunday nomlanadi.

Arab tilida moslashuvchi so'zlar 4 ga bo'linadi (Nosif, 2008, pp. 96-100):

1. **النعته** (sifatlovchi aniqlovchi)
2. **التوكيد** (ta'kidlash va kuchaytiruv)
3. **البدال** (izohlovchi)
4. **العطف** (bog'lovchi)

Adabiyotlar tahlili. Arab tilidagi tobe bog'lanishning hosil qilinishi o'ziga xosligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Tavobelarning turlarga ajratilishi borasida Kufa va Basra maktablari bir muncha ixtilofda bo'lishgan. Birgina moslashgan aniqlovchi termini ham uch xil nomda qo'llanilgan bolib: **النعته, الصفة, الوصف**, ularga turli olimlar turlicha ta'rif berishadi. **النعته** terminini asosan, Kufiyalar, **الصفة, الوصف** terminini esa Basriylar qo'llashgan (Mahmud Sulayman, 2006, pp. 145-150). Masalan, Ibn Hishom shunday deydi: "Sifat bu o'zi ergashgan so'zdagi ma'noga yoki unga aloqador bo'lgan ma'noli birikmaga dalolat qilib, uni aniqlab, to'ldirib keluvchi ergashuvchidir." (al-Ansari, 1406, p. 129).

Ibn Molik esa quyidagicha ta'riflaydi: "Sifat bu o'zidan oldin kelgan so'zning belgisidir".

Ibn Oqil "Sharh-ul-Bayt" da yozishicha: Sifat shunday ta'riflanadi: ergashuvchi, o'zi bog'langan so'zning sifatlaridan birini bayon qiluvchidir".

Sifat bu — predmet belgisini bildiruvchi soʻzlar turkumi. Grammatikada belgi soʻzi keng tushunchali boʻlib, u belgini rang turi, hajm, shakl, koʻrinish, xususiyat va shakliga koʻra bildiradi: qizil, keng, yoqimli va boshqa.

Bugungi kunda ushbu tobelanish qoidasiga soʻzlashuvda maʼlum darajada rioya qilinmaydi. Bu mavzu esa Pat-El (2009,2017), Stokes (2020), Prochazka (2021) tomonidan tadqiq etilgan.

Natija va muhokamalar. Tobe bogʻlanishni hosil qiluvchi birliklar(tavobe) asosiy vazifasi shundaki, oʻzi ergashgan otning maʼnosini toʻldirib, izohlab, aniqlab keladi va ularning barchasi jins, holatda kelishikda(erob) ergashadi yaʼni moslashadi.

(الصفة)ألنعت - Bu arab tilidagi moslashgan aniqlovchi boʻlib, oʻzbek tilidagi sifatlovchi aniqlovchiga toʻgʻri keladi.

Sifat oʻzi tobelanib kelayotgan soʻzni izohlab, aniqlab chegaralab keladi. Masalan, telefon deganda koʻz oldimizga hamada qandaydir telefon shakllanadi, ammo unga bir sifat qoʻshilsa, qizil telefon yoki Samsung rusumli telefon deganda tasavvurimiz yanada oyndilashadi hamda umumiylikka ega boʻladi.

Arab tilida sifat tobelanishni taʼminlash yaʼni grammatik qurilishni toʻgʻrligini hosil qilish bilan birgalikda lingvopragmatik xususiyatlarni aks ettirishgayam xizmat qiladi.

Sifat oʻzi tobelanib kelayotgan soʻz bilan toʻrt holatga koʻra tobeʼlanadi: sonda, jinsda, holatda, erobda.

Arab tilida sifat asosan yasama soʻzlar boʻlib ular quyidagilar ifodalanib keladi:

1- Masdar bilan: هو رَجُلٌ ثِقَةٌ أَي : موثوق به: - U ishonchli odam

أنت رَجُلٌ عَدْلٌ أَي : عادلٌ - Sen aodatli odamsan.

2- Koʻrsatish olmoshlari bilan:

شاهدتُ هذا الشارع bu koʻchani koʻrdim

رجع أولئك المعلمون إلى البلدان العربية - Oʻsha oʻqituvchilar arab oʻlkalariga qaytishdi.

3- " sohibi, egasi maʼnosini anglatuvchi bilan:

جاءَ رَجُلٌ ذُو عِلْمٍ أَي : صاحب علمٍ - Ilm egasi boʻlgan inson keldi.

كتبتُ امرأةً ذاتَ فَضْلٍ هذه الرسالةُ - Bu xatni fazilatli ayol yozdi.

4- Nisbiy olmoshlar bilan:

ذهبَ الرَّجُلُ الذي اجتهد أَي : المجتهدُ - Tirishqoq inson ketdi

5- Aniqlanmishning soni ifodalashda son bilan:

ماتَ رجالٌ أربعةٌ - Toʻrt kishi oʻldi.

6- Nisbiy sifat bilan:

رَأَيْتُ رَجُلًا دِمَشْقِيًّا - Damashqlik insonni ko'rdim.

7- O'xshatish, sifatlovchi otlar bilan:

رَأَيْتُ رَجُلًا أَسَدًا أَي : شَجَاعًا - She'r kabi (dovyurak) insonni ko'rdim.

8- "ما" bilan:

أَكْرَمُ رَجُلًا مَا - Insonni shunchalar hurmat qilginki..

Bu yerda "ما" to'siqsizlikni, bo'rttirish ma'nosini ifodalaydi (G'alayaniy, 2010, p. 457).

9- "كُلُّ و أَيِّ" so'zlari bilan:

أَنْتَ رَجُلٌ كُلُّ الرَّجُلِ - Sen insonlarning insonisan (zo'risan)

جَاءَنِي رَجُلٌ أَيُّ رَجُلٍ أَي : جَاءَنِي رَجُلٌ أَيَّمَا رَجُلٍ – Mening oldimga shunchalar zo'r odam keldiki..

Yuqorida sifatning tobelanish masalari yoritildi. Ma'lumki, og'zaki nutqda Grammatik qoidalarning qo'llanishda o'zgarishlar yuz beradi. Arab tilidagi aniqlovchili birikmalarning tavsifi 3 qismga bo'lgan holda ko'rib chiqilgan:

- sifatning doim otdan keyin kelishi;

-jins kategoriyasiga ko'ra ot va sifatning to'liq moslashishi;

-aniqlik ,noaniqlik kategoriyasi otning holatiga muvofiq tarzda sifatda ham aks etishi.

Lingvistikaning tipologik tadqiqotlarida sifat otdan oldin ifodalanishi ko'proq ekanligi ko'rsatiladi. Masalan, turk tili, fransuz , ingliz , hatto semit tillar oilasiga kiruvchi ibroniy tillarida ham sifat otdan oldin ifodalangan holda aniqlovchili birikma hosil qiladi.

Arab tilida esa oldin ot undan keyin uning moslashgan aniqlovchisi to'liq otga tobelangan holda ifodalanadi.

Artikl birligi mavjud tillarda ot va sifat ifodalanganda artikl quyidagicha ifodalanish holatlari bo'ladi:

a) artikl, ot+ art.sifat

b) art.ot+sifat

c) ot+art.sifat

Ko'p tillarda b kategoriya holati ko'p ifodalanadi, ammo arab tilida a kategoriya ya'ni otda artikl ifodalansagina , sifatda ham aks etadi (Plank, 2003, pp. 337-395).

Arab tili shevalarining kam sonlilaridagina so'z tartibi ya'ni ot va sifat kelish tartibi buzilgan holatda qo'llaniladi. Masalan, kibr arabchada bunga sabab esa yunon tili ta'sri ekanligi ko'rsatiladi:

الخبير بيت (al-xibir bayt) – katta uy (Walter, 2020, pp. 154-179).

Bugungi kunda ushbu qoidalarining bir muncha o'zgarish holati kuzatiladi. Masalan so'z tartibining o'zgarishi, Maltada:

الفقيرة المرأة – kambag'al ayol

Sanoda: ولد كبير - Katta bola

So'z tartibining teskari o'zgarishi boshqa bir nechta navlarda ham tasdiqlangan, lekin odatda juda kam sonli sifatlar ro'yxati bilan cheklangan. Bu sifatlar chet eldan kelib chiqqan va morfologik jihatdan o'zgarmasdir, ya'ni ular kelishilgan va sonni ko'rsatmaydi (Procházka, 2022, p. 20).

Jinsda moslashuv qoidasi ham ayrim shevalarda nisbiy sifat "i" tarzida talaffuz qilinganligi asosida farqlanmaydi.

Shuningdek, jinsga moslashuv qoidasida arab tilidaba'zi sifatlar ikkala jinsda ham farqlanmaydi ya'ni bir xil shaklda qo'llaniladi:

فَخُورٌ (sabr qiluvchi, sabrli), صَبُورٌ (sabr qiluvchi, sabrli) ma'nosidagi sifatlar: "فَاعِلٌ" qolipidagi "فَعُولٌ" (mag'rurlanuvchi), شَكُورٌ (shukr qiluvchi), غَيُورٌ (rashkchi)

قَتِيلٌ (jarahotlangan), جَرِيحٌ (jarahotlangan) sifatlar: "فَاعِلٌ" qolipidagi majhul nisbat sifatdoshi ma'nosidagi sifatlar: "فَعِيلٌ" (o'ldirilgan), خَضِيبٌ (bo'yalgan),

مَبْسَامٌ (doim kulib turuvchi), مَكْسَالٌ (dangasa), مَهْذَارٌ (sergap) sifatlar: "مَفْعَالٌ" qolipidagi

مَسْكِينٌ (kambag'al), مَعْطِيرٌ (o'ziga ko'p atir sepuvchi) sifatlar: "مَفْعِيلٌ" qolipidagi

مُدْعَسٌ (ko'p yurilganidan ko'pchilik ketgan yo'l), مَغْشَمٌ (bahodir, dovyurak) sifatlar: "مَفْعَلٌ" qolipidagi

رَجُلٌ غَيُورٌ (kabi), رَجُلٌ جَرِيحٌ, اِمْرَأَةٌ جَرِيحٌ, اِمْرَأَةٌ غَيُورٌ Yuroqidagi 5 vaznlarning muannas va muzakkar jinslari bir xil holatda bo'ladi:

Ba'zi sifatlar faqat ayol jinsiga yoki hayvonlarga xoslangan holda qo'llaniladi. Shu sababdan ular ot bilan grammatik birlik olgan holda moslashmasa-da, uning ma'nosi tobelanib kelayotganini ko'rsatadi. Masalan حَامِلٌ (homilador) sifati muannaslik kategoriyasi olmagan holda tobelanib keladi (faqat ayol jinsga xoslanganligi sababli).

Ammo bugungi, kunda mag'rib lahjalarida حَبْلَةٌ (muannaslik kategoriyasini olgan holda) shaklida qo'llaniladi (Ritt-Benmimoun, Procházka, 2009, p. 8).

Xulosa. Arab tilidagi tavobelarning vazifasi nafaqat grammatik qurilishda tobe bog'lanishni hosil qilish balki, gapning umumiy ma'nosini aniqlash va izohlash hamda chegaralashdan iboratdir. Shu sababli tobe bog'lanishni hosil qiluvchi birliklarni pragmatic jihatdan ham bir guruhga kiritish mumkin. Tobe bog'lanishni hosil qiluvchi birlik o'zi tobelanib kelayotgan birlikka bilvosita yoki bevosita tobelanib keladi.

Shuningdek, ogʻzaki nutqda sifatning tobelanish va tartibiga oid oʻzgarishlar mavjud boʻlib, ularga ichki til sabablar: boshqa tillarning taʼsiri, geografik joylashuv, talaffuz kabilar yuzasidan sodir boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Begmatova, B. M., Mutalova, G. S., & Kasimova, S. S. (2023). The direct object and its use in arabic language. *Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal*, 10(1), 3601-3609.
2. Gʻalayaniy, M. (2010). Collection of Arabic lessons. *Jamiu-d- durusun-ul-arobiyya*. – Damascus. – 1200 p. (in Arabic)
3. Ibn Hisham al-Ansari. (1406 AH). Clarification of the paths. *Awdah al-Masalik*. – Saudi Arabia. – 30 p. (in Arabic)
4. Mutalova, G. S. (2025). SPECIFICITY OF FORMATION AND FUNCTIONING OF SOME VERBAL NOUNS IN THE ARABIC LANGUAGE. *Spetsifika obrazovaniya i funktsionirovaniya nekotorykh glagol'nykh sushchestvitel'nykh v arabskom yazyke*. *World Scientific Research Journal*, 46 (1), 230-242. (in Russian)
5. Nosif, H. (2008). Grammar lessons. *Durus-un nahviyya*. – Egypt: Dar-ul-kutub. – 345 p. (in Arabic)
6. Plank, F. (2003). Double articulation. In F. Plank (Ed.), *Noun phrase structure in the languages of Europe*. – Berlin & New York: De Gruyter. – 420 p. (in English)
7. Procházka, S. (2022). Towards a typology of attributive adjectives in Arabic dialects. – *Language Typology and Universals*. – 35 p. (in English)
8. Ritt-Benmimoun, V., & Procházka, S. (2009). Female issues in Arabic dialects: Words and expressions related to the female body and reproduction. – *Estudios de Dialectología Norteafricana y Andalusí*. – 13 p. (in English)
9. Rustamov A.E. (2025). Features of conditional constructions in the Arabic language. *Arab tilida shartni ifodalovchi konstruktsiyalar xususiyatlari // Oriental Journal of Philology*, Vol 05, Issue 03. – Pp. 561-567. DOI: <https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-64> (in Uzbek)
10. Rustamov, A. (2020). Syntactic properties of conditional prepositions (hurufu-sh-shart). *Shart yuklamalari (hurufu-sh-shart)ning sintaktik xususiyatlari*. *Eastern torch*, 1(1), 108-116. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eastern-torch/article/view/13273> (in Uzbek)
11. Walter, M. A. (2020). Cypriot Maronite Arabic. In C. Lucas & S. Manfredi (Eds.), *Arabic and contact-induced change*. – Berlin: Language Science Press– 204p. (in English)
12. Yaʻqub, Mahmud Sulayman. (2006). Expansion in Arabic Grammar. *Al-Tawalluʻ fi al-Nahw al-ʻArabi*. – Egypt: Faculty of Arts, Tanta University. –256 p. (in Arabic)